

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924037>

O‘ZBEKISTON FOTOGRAFIYA SANATINING VUJUDGA KELISHI. BIRINCHI O‘ZBEK FOTOGRAFI.

Isroilova Ra’no Jasur qizi

“Tchan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi katta ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fotografiyaning O‘zbekiston hududiga kirib kelishi va birinchi fotografi Xudoybergan Devonovning bu ishni mukammal egallashi haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Stanislav Nikolaev, Nikolay Veselovskiy, S.Dudin, Georgiy Zelma, Aleksandr Rodchenko, I.Vvedenskiy, I.Chistyakov, Fotografiya, Vilgelm Penner.

THE EMERGENCE OF THE ART OF PHOTOGRAPHY IN UZBEKISTAN. THE FIRST UZBEK PHOTOGRAPHER.

ABSTRACT

This article provides brief information about the introduction of photography to the territory of Uzbekistan and how the first photographer, Khudoibergan Devonov, mastered this work perfectly.

Keywords: Stanislav Nikolaev, Nikolai Veselovsky, S. Dudin, Georgy Zelma, Alexander Rodchenko, I. Vvedensky, I. Chistyakov, Photography, Wilhelm Penner.

Fotografiyaning O‘rta Osiyoga, xususan, o‘zbek diyoriga kirib kelganiga 130 yildan oshdi.

Tarixiy hujjatlarning dalolat berishiga qaraganda, O‘rta Osiyo, xususan, hozirgi O‘zbekiston hududiga kirib kelishida evropalik sayyoh va o‘lkashunoslarning xizmati katta bo‘ldi. Ular yurtimiz bilan tanishish, uning tabiati, tarixi va madaniyatini o‘rganish maqsadida ilk bor fotoapparat bilan Turonzaminga kelgan edilar. Shulardan biri Anton Murenko bo‘lib, u 1858-yilda polkovnik N.Ignatevning harbiy-diplomatik safari vaqtida qadimiy shahar Xivaning ko‘rinishlarini suratga olgan. Uning

izdoshlaridan biri Stanislav Nikolaev 1837-yilda Toshkentda ilk fotografiya atelesiga tamal toshini qo‘ygan. Olim va fotograf Nikolay Veselovskiy (1848-1918) va S.Dudin (1863-1929) XIX asr oxirlarida Samarqanddagi mashhur madrasa va maqbaralardagi naqshlari ilm-fan uchun muhrlab qoldirishgan. Nihoyat, bizga tanish bo‘lgan parijlik foto ustasi Pol Nadar 1890-yilda O‘rta Osiyoga sayohatga kelib, yuqorida tilga olganimiz Orol dengizidan tortib, Pomir tog‘lariga qadar cho‘zilgan yurtimiz manzaralarini suratga oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo, xususan, Turkistonga fotograflar serqatnov bo‘lib qolishdi. Ular uchun, ayniqsa, Samarqand muqaddas ziyoratgoh manzilga aylandi. Yevropalik va rossiyalik fotograflar Samarqandning mahobatli me‘moriy majmualarini suratga olish uchun fotografik ekspeditsiyalarni qayta-qayta uyushtirdilar. Bu foto san‘ati ustalari orasida yangi san‘at turining eng mashhur namoyandalari kam bo‘lmagan. Masalan, XX asrning 30-yillaridagi poligrafiya va fotografiyaning so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassamlantirgan “O‘zbekistonning 10 yilligi” fotoalbomining bosh fotografi Aleksandr Rodchenko (1891-1956) shunday kishilardan edi.

Moskvadan maxsus taklif etilgan bu fotograf Toshkentga kelib, Boris Kudoyarov (1898-1974) va Georgiy Zelma (1906-1984) singari mahalliy fotograflarga ustozlik qildi. Ular garchand o‘tgan asrning 20-yillarda Moskvaga ko‘chib ketgan va o‘sha erda yashab, ishlagan bo‘lsalarda, O‘zbekiston bir umrga ular ijodining markaziy mavzularidan biri bo‘lib qolgan edi. Ularning mamlakatimizda yaratgan asarlari, Maks Albert, A.Shayxet, I.Panov va boshqa taniqli fotograflarning O‘zbekistonga bag‘ishlangan ishlari foto san‘atining oltin fondidan munosib joy olgan.

Sharq me‘morchiligining yildan-yilga nurab borayotgan madaniy meroslarni muhrlab qoldirish uchun XIX asr oxirlarida Samarqandga bir necha maxsus ekspeditsiyalar tashkil qilindi. Rossiyalik I.Vvedenskiy, I.Chistyakov va S.Dudin o‘zlaridan shunday boy fotomaterial qoldirdilarki, bu materiallar keyinchalik Samarqand obidalarini qayta ta‘mirlashda, ayniqsa, asqotdi.

Har bir inson tarixning muayyan bir davrida dunyoga keladi. Davr esa shunday daryo-i azimki, agar tohsa, har qanday insonni o'zining shiddatli oqimiga tortib, bamisoli bir xas yanglig' ezib-majaqlaydi va yutib yuboradi. Agar u o'z g'alayoni davomida qilgan vayronliklaridan, yamlab yutgan tirik jonlardan to'ygan bo'lsa, engil nafas olib, har ikki sohilida ne-ne orzu va umidlar bilan yashayotgan dov-daraxtlar, hayvonlar va odamlarga hayot bag'ishlaydi.

Bo'lajak birinchi o'zbek fotografi 1878-yili Xiva shahrida Nurmuhammad devon (mirza) oilasida dunyo yuzini ko'rdi.

Ammo ayrim manbalarda uning tug'ilgan yili turli xil berilgan. Xususan, Xudoybergan Devonov 1937-yil 30-iyunda hibsga olinib, mahbuslik anketasi to'ldirilganda tug'ilgan yilini 1888-yil, degan bo'lsa kerakki, anketada shu raqam muhrlanib qolgan. Ammo keyinchalik tergovchilar birinchi o'zbek fotografining 1934-yilda berilgan pasporti asosida uning tug'ilgan yilini 1879-yil, deb qayd etganlar.

Shunday qilib, bo'lajak birinchi o'zbek fotografi Xiva shahrida Nurmuhammad devon (mirza) oilasida dunyo yuzini ko'rdi. Uning otasi, ayrim manbalarda aytilishicha, xon saroyida munshiy (kotib) va tabib bo'lib xizmat qilgan. Boshqa bir manbaada Nurmuhammad otaning Xo'jayli tumanida hokim bo'lganligi ta'kidlanadi. Xudoybergan Devonovning jiyani Abdulla Yusupov esa tog'asi haqidagi xotiralarida yozishicha, Nurmuhammad Xo'jayli tumanidagi yer-suvning boshqaruvchisi bo'lgan.

Salimjon Hasanov ism-sharifli muallif "Birinchi o'zbek kinooperatori" degan maqolasida esa Xudoybergan hayotining xuddi shu davri to'g'risida quyidagi so'zlarni yozgan:

"O'tkir zehnlil Xudoybergan oq-qorani tanigach, tez orada arab qa fors tillarini mukammal o'rgandi va Sharq adabiyoti klassiklari ijodini ham qunt bilan mutolaa qila boshladi. Rus tilini o'rganish uchun esa u rus tili o'qituvchisi Muxtor Bakirovga shogird tushdi. Ayniqsa, uning dunyoqarashining shakllanishida, ilg'or rus fani va madaniyatiga mehr-muhabbat uyg'otishida o'z zamonasining ilg'or fikrli kishilari bo'lgan Komil Xorazmiy, Bayoniy, Tabibiy, Mutrib Xonaxarobiy, Avaz O'tar o'g'li,

Otajon Abdalov, Muhammad Rasul Mirzo, Safo Muhanniy, Faqiriy, Partaviy kabi progressiya ruhdagi ma'rifatparvarlarning ta'siri katta bo'ldi

Soatsozlik bilan shug'ullangan va ehtimol, yoshlik yillarini shu hunarga bag'ishlamoqchi bo'lgan yigitning Vilgelm Penner bilan uchrashuvi uning taqdirini ag'dar-to'ntar qilib yubordi. Unda fotografiya san'atiga qiziqish uyg'onishi va uning ilk o'zbek fotografi bo'lib shakllanishi Vilgelm Pennerning nomi bilan bevosita bog'liq edi.

Kishilar va tabiat manzaralarining bir lahzadagi holatini fotosuratda muhrlab qoldirish chindanda mo'jiza edi. Uning baxtiga, Vilgelm Penner ham o'z hunarini yashirishga urinmaydigan, raqobat orttirishdan cho'chimaydigan mard va oliyjanob inson edi. Aksincha, u Xudoyberganda foto san'atiga qiziqish uyg'otib, unga suratga olish va oynaga tushirilgan tasvirni qorong'i xonada fotodorilar yordamida yuzaga chiqarishning murakkab jarayonini o'rgatdi. Hatto unga "Zot" rusumli fotoapparatini sovg'a qildi. Xudoybergan uning daldasi bilan shu fotoapparatda surat olishga quvona-quvona kirishdi.

Qatag'on davri qurbonlari nomini tilga olish mumkin bo'lgandan so'ng, XX asrning 60-70-yillardan boshlab Xudoybergan Devonov to'g'risida o'nlab maqola va ocherklar e'lon qilindi. Bu xayrli ishni boshlab bergan, birinchi o'zbek fotografi va kinooperatori haqida bir necha maqolalar yozgan va hujjatli filmlarni yaratgan taniqli kinoshunos olim, filologiya fanlari doktori Hamidulla Akbarov, xorazmlik fidoyi yozuvchi va jurnalistlar Erkin Madrahimov, Salimjon Hasanov, Komil Nurjonov, Ro'zimboy Hasan va boshqalar Xudoybergan Devonovning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish ishiga muhim hissa qo'shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Karimov N. Birinchi o‘zbek fotografi va kinooperatori Xudoybergan Devonov / Kitob-albom. – Toshkent: San’at, 2019.
2. Golender B. Birinchi o‘zbek fotografi (Xudoybergan Devonov o‘zbek milliy fotosan’ati va xujjatli kino asoschisi) // San’at. 2009.– № 4.
3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/naim-karimov-xudoybergan-devonov>
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/naim-karimov-xudoyberdi-devonov.html>